

ALISHER NAVOIYNING XALQ SALOMATLIGI YO'LIDAGI FAOLIYATI

G'aniyeva Gulchehra Karshibayevna

EMU University Ijtimoiy fanlar kafedrası katta o'qituvchisi

Annotatsiya:

Turkiy til va adabiyoti taraqqiyotini Alisher Navoiy ijodisiz tasavvur qilib boimaydi. Ulug' shoiming har bir satri barcha zamonlar uchun bitmas-tuganmas ma'naviy boylik va olamshumul ahamiyatga ega boilib kelgan. Alisher Navoiy o'z faoliyati davomida tabiblik ishini rivojlantirish va bemorlar sog'ligini tiklash maqsadida ko'p xayrli ishlarni amalga oshirgan. Maqolada ulug' allomaning shu yo'nalishdagi faoliyati yoritilgan.

Аннотация:

Развитие узбекского языка и литературы невозможно представить без творчества Алишера Навои. Каждая строка творчества нашего великого мыслителя полна неисчерпаемого духовного богатства и общечеловеческого значения на все времена. За всю свою карьеру Алишер Навои сделал много добрых дел для развития медицинского дела и восстановления здоровья пациентов. В статье описывается деятельность великого ученого в этом направлении.

Kalit so'zlar: turkiy til, tibbiyot, xalq tabobati, tabiblar, tasavvuf, jamoat shifoxonasi.

Jahon adabiyoti miqyosida kuzatadigan boisak, har bir xalqning ulug' ijodkorlari qoldirgan ma'naviy meros barcha zamonlarda nafaqat qalam ahlari, balki butun millat uchun ibrat va saboq maktabi, intilish nuqtasi bo'lib kelgan. Shuning uchun ular asos solgan ijod maktabining an'alarini o'rganish va targ'ib qilish turli yo'sinda amalga oshirilib borilgan.

Alisher Navoiy faqat o'zbek emas, balki butun turkiy xalqlar adabiyoti, jahon xalqlari adabiyoti tarixidagi eng noyob hodisalar silsilasiga mansub bo'lgan buyuk shaxsdir. U qoldirgan merosning soni va hajmigagina emas, balki ularning mazmun va yuksak badiiyatiga ko'ra ham tengsiz adibdir.

Tarixdan ma'lumki, Alisher Navoiy o'z faoliyati davomida tabiblik ishini rivojlantirish va bemorlar sog'ligini tiklash maqsadida maxsus shifoxona qurdiradi. Uning nomi Xondamir ta'biri bilan aytganda: "Dor-ush-shifo"dir. Eng muhim jihatlardan biri, shifoxona tarkibida kattagina dorixona ham bo'lgan. Xondamir mazkur shifoxona haqida: "Kishilar zarur dori-darmonlarni hamma vaqt o'sha joydan topib keladilar", - deb yozadi. Navoiy o'rta asr Sharq tabobatining quyoshi Abu Ali ibn Sinoni o'zining "Hayrat ul-abror" asarida aql ramzi, ya'ni "Aliyi fikrat" deb ulug'laydi. U tabobat namoyondalarini qo'llab-quvvatlabgina qolmay, balki yordamga muhtoj xalqqa xayrli xizmat ko'rsatish uchun ham qulay shart-sharoit yaratib bergan. Navoiy Hirotda maxsus jamoa shifoxonasi tashkil etgan, unda tabiblar bemorlarni davolash bilan birga talabalarga tibbiyot ilmidan dars ham berganlar.

Hazrat Navoiy o'zining "Mahbub ul-qulub" asarida: "Tabib-shifokor o'zining asl ilmini yaxshi bilmog'i, tabiatan ham, muomalada ham rahm-shafqatli bo'lmog'i lozim. Ustozlari so'ziga rioya qilmog'i, ularga ergashmog'i darkor. Muloyim so'z bilan bemor ko'nglini ko'tarib, muolajaga kirishmog'i kerak", - deb yozadi. Tabib nafaqat dori-darmon bilan, balki muloyim so'zi, samimiy munosabati bilan ham davolash jarayonini kuchaytira oladi deydi Navoiy. Shu o'rinda Navoiy yana bir fikrni aytadi: "Tabib

o'z kasbiga mohir bo'lsa-da, buning barobarida badfe'l, loqayd va qo'pollik bilan bemorni har qancha davolasa ham najot kutgan inson sog'lig'ida hech qanday o'zgarish bo'lmaydi".

Bundan tashqari, Navoiy tabib qanday bo'lishi kerakligi, odamlar salomatligini muhofaza qilish qanday tashkil etilishi lozimligi haqida ham ko'plab asarlarida muxtasar fikrlarni bildirgan. Demak, Navoiy tom ma'noda tabobatning haqiqiy targ'ibotchisi va mohir bilimdoni bo'lgan. Zero, Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov aytganidek, Navoiy "mutafakkirlarning mutafakkiri"dir, "olamda turkiy va forsiy tilda so'zlovchi biron-bir inson yo'qki, u Navoiyni bilmasa, Navoiyni sevmasa, Navoiyga sadoqat va e'tiqod bilan qaramasa".

Navoiyning tabobat fani asoslarini yaxshi bilishi, tabobat bilan qiziqishi, xalq ahvolini yaxshilashga bo'lgan insonparvarlik harakati tufayli Hirotida "Dorush-shifo", ya'ni Davolash uyi ochildi. Shifoxonada o'z davrining yetuk tabiblari, Navoiyning hurmatini qozonolgan hakimlar ish olib borishgan. Bu yerda mashhur tabiblarning to'planishi, ularning bamaslahat ishlashlari tabobat ilmini rivojlantirish uchun ulkan imkoniyatlar tug'dirdi. Shunisi diqqatga sazovorki, shifoxonada ishlashi, ya'ni ularning dam olishlari, yashashlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratib berilgan edi. Masalan, bino yonida «Kavsar misol hovuz» bo'lgan. Eng qizig'i shuki, u yerda bemorlar uchun bepul dori-darmonlar, yeyish uchun oziq-ovqatlar bo'lgan. Uzoq yurtlardan ham kelib, bu yerda yotib davolanishgan. Bunday sharoitlarni yaratish uchun kattagina mablag' lozim edi. Bularning barchasini Navoiy o'z zimmasiga olganligi tarixiy manbalarda keltiriladi. Bu esa o'sha davr tabobati uchun katta ahamiyatga ega imkoniyat edi.

Navoiy bobomiz boshlab bergan savobli ish tufayli qanchadan-qancha bemorlar dardiga shifo topdi. Navoiy asos solgan "Dorush-shifo" va bu yerda ishlaydigan tabiblarning dovrug'i olamga yoyildi. Samarqand bilan Dorushshifo o'rtasidagi aloqalar haqida ma'lumotlar saqlangan. Ko'p bemorlar Samarqanddan shu yerga kelib davolanganlar. Bu esa undagi tabiblarning katta shuhratga ega ekanini ko'rsatadi.

Mir Abdulavvalning mavlono Qosim bilan birga Samarqanddan Hirotga, Navoiyga yozgan maktubida ham Samarqandda vabo va o'lat tarqalgani va bunda Hirotidan olingan mordoru (ilondan tayyorlangan davo) yaxshi ta'sir qilgani haqida so'z ketadi.

Navoiyga yuborilgan maktubda mavlono Fazlullohning ko'z kasalligi haqida so'z ketadi va unda shunday deyiladi: «Bir yilga yaqin bo'ldiki, bir illat ularni parishonxotir qilmoqda, bu tomonlarda ularni davolashga qurbi yetadigan ishonchli ko'z tabibi (qahhol) topilmaydi. Zarurat tufayli safarni farz bilib, o'sha diyorga otlandilar».

Xo'ja Ahrorning o'ttiz besh kunlik uzoq yo'ldan tabib chaqirtirib kelishi va shunchalik uzoq yo'lga mavlono Fazlullohning davolanishga yuborilishi Hirot Dorushshifosining va undagi tabiblarning g'oyat mashhur bo'lganini ko'rsatadi.

Alisher Navoiy garchi shaxsan tabobat bilan shug'ullanmagan bo'lsa-da, butun hayot yo'li davomida xalq uchun, uning farovonligi, osoyishta umr kechirishi hamda salomatligi uchun qayg'urib kelgan insonparvar insondir. Bu yo'lda o'zining shaxsiy mablag'-daromadlarini ham sarflaganligi manbalarda o'z aksini topgan.

Adabiyotlar:

- 1.Alisher Navoiy. "Mahbub ul-qulub". T., "G'afur G'ulom", 2011.
- 2.Ibrohim Haqqulov. Tasavvuf va she'riyat. T., 1990.
- 3.Abduqodir Hayitmetov. Navoiy dahosi. T., 1970.

4. Abduqodir Hayitmetov. Navoiyxonlik suhbatlari. T., 1993.
5. Aziz Qayumov. Nodir sahifalar. T., 1991.
6. Aziz Qayumov. Bu ohang ila bo'lgaysen naqshband. T., 1993.